

2-dars. Takrorlash. 1 dan 100 gacha bo'lgan sonlar



1. Rasmda nechta rediska bor? Bir bog'lamda nechta sabzi bor? Rediska va sabzilar umumiy sonini qanday hisoblash mumkin?



2. Sonlarni namunaga qarab daftaringizga yozing. Sonlarning xonalarini ayting.



Namuna: $81 = 8$ o'nl. 1 birl.

Sonlar xonalari bo'yicha qo'shiladi va ayiriladi:
o'nliklar o'nliklarga, birliklar birliklarga qo'shiladi;
o'nliklar o'nliklardan, birliklar birliklardan ayiriladi.

$$64 + 23 = 87$$

$$64 - 23 = 41$$



3. Hisoblang va namuna bo'yicha daftaringizga yozing.
Namuna: $56 + 42 = 98 = 9$ o'nl. 8 birl.

$$45 + 13$$

$$74 + 20$$

$$23 + 15$$

$$29 - 14$$

$$68 - 50$$

$$77 - 11$$



4. Polizdan 20 ta tarvuz, ulardan 10 ta ko'p qovun, qovunlardan 10 ta ko'p qovoq yig'ib olindi. Polizdan jami nechta qovoq yig'ib olingan?





5. Fermerlar hosilni yig'ib oldilar. Har bir sabzavotni qanday ikkita yaxlit son orasiga joylashtirish kerak?



82



41



97



85



32



18



5



63



6. Necha kilogramm meva yig'ib olinganini hisoblang.



$$40 + 50 - 20$$



$$30 + 20 - 10$$



$$60 - 30 - 10$$



$$40 - 10 + 50$$



7. Har bir predmet qaysi doira ichiga tushadi.
Qaysi predmetlar ikkala doiraga ham tushadi?



8. Hisoblang.

7 o'nl. 2 birl. + 1 o'nl. 6 birl.

8 o'nl. 7 birl. - 2 o'nl. 5 birl.

$$62 + 17 - 21$$

$$47 - 25 + 32$$

9. Karim bilan Said hosilni terib olishda otasiga yordam berishdi. Karim 12 chelak, Said esa undan 7 chelak kam kartoshka terdi. Bolalar jami necha chelak kartoshka terishgan?

